Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: **372.30**
ORCID:0009-0007-0373-0665

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR O‘QUV-BILUV FAOLLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

USAROVA MARG‘UBA NAZAR QIZI
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:margubahumoyun@gmail.com

Annotatsiya. Ta’limdagi shaxsning faolligi muammosi pedagogika, psixologiya va o‘quv amaliyotida eng dolzarb muammolardan biridir. Ta’lim maqsadlariga erishish, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning kasbiy tayyorgarligining yetakchi omili sifatida ta’limdagi shaxsning faolligi muammosi ta’limning eng muhim elementlari (mazmuni, shakllari, usullari) va holatini tubdan tushunishni talab qiladi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar o‘quv-biluv faolligini oshirish yo‘llarining joriy holati hamda ona tili va o‘qish savodxonligi darslari orqali egallanadigan nutqiy ko‘nikmalar haqida yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Nutq ko‘nikmalari , metod, lug‘at ,“Mosini top”, “Qo‘shningni top”o‘yinlari.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТНОМУ ЧТЕНИЮ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.

Аннотация. Проблема индивидуальной активности в образовании является одной из самых актуальных в педагогике, психологии и образовательной практике. Достижение образовательных целей и всестороннее развитие личности, при этом активность человека в образовательном процессе как ведущий фактор его профессиональной подготовки, требует глубокого понимания ключевых элементов (содержания, форм, методов) и состояния образования. В данной статье рассматривается современное состояние методов повышения учебной активности учащихся начальной школы на уроках родного языка и грамотности, а также речевых навыков, приобретаемых через изучение родного языка и грамотности.

Ключевые слова. Речевые навыки, метод, словарь, игры «Найди пару» и «Найди соседа».

APPROACHES TO ENHANCING PUPILS' LEARNING ENGAGEMENT IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS IN PRIMARY SCHOOL

Abstract. The problem of individual activity in education is one of the most urgent problems in pedagogy, psychology and educational practice. Achieving educational goals, all-round development of a person, the problem of the activity of a person in education as a leading factor of his professional training requires a fundamental understanding of the most important elements (content, forms, methods) and situation of education. This article highlights the current state of

ways to increase the learning activity of students in the native language and reading literacy classes of the elementary school, as well as the speech skills acquired through the native language and reading literacy classes.

Key words. Speech skills, method, vocabulary, games "Find your match", "Find your neighbor".

KIRISH. Jahonda boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilar faolligini oshirish to‘laligicha yoki muayyan fan doirasida, modulli ta’lim dasturi mazmuniga muvofiq o‘qituvchilar faoliyatini rejalashtirish va kasbiy faoliyat elementlarini ta’lim oluvchilar tomonidan ketma-ket o‘zlashtirishga yo‘naltirish, ta’lim tizimini standartlashtirish va takomillashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi. So‘nggi yillarda boshlang‘ich sinflarda an’anaviy tarzda alohida o‘qitilib kelingan ona tili va o‘qish fanlari “ona tili va o‘qish savodxonligi” sifatida yagona fanga birlashtirilgan edi. Bunday o‘zgarishning bir qancha sabablari mavjud ekanligini qayd qilish lozim:

1) o‘qish fani qamrab oladigan o‘qib tushunish, avvalo, nutqiy ko‘nikma hisoblanadi. Nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ona tili fanining vazifalari sirasiga kiradi;

2) tildagi retseptiv va produktiv ko‘nikmalar o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida qabul qilinadi. Bunda retseptiv ko‘nikma o‘qib tushunish yoki tinglab tushunishni anglatsa, produktiv ko‘nikma gapirish va yozishni anglatadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, biz qabul qilgan ma’lumotlarimizdan (eshitgan yoki o‘qigan ma’lumotlarimizdan) beixtiyor ongimizda matn yaratamiz. Gapirish yoki yozish jarayonida teskari holatni ko‘rishimiz mumkin: xayolimizda shakllantirgan matnimizni gapiramiz yoki yozamiz. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ma’lum bo‘ladiki, ona tili va o‘qish fanlari birlashtirib o‘qitilishi natijasida ta’lim oluvchi tilshunos olim kabi til strukturasini emas, balki tildan foydalanuvchi sifatida so‘z, uning ma’nolar, nutqda qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganadi. Shuni ta’kidlash lozimki, ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarining birlashtirilishi o‘quvchilar tomonidan og‘zaki bajariladigan mashqlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ma’lumki, og‘zaki bajariladigan mashqlar ona tili darslari alohida tashkil etilganda nihoyatda kam uchrar edi. Ammo ona tili darslarida og‘zaki mashqlarning qo‘llanishi nutqiy samaradorlikka ijobiy ta’sir qilishi shubhasiz. Masalan, Finlandiya ta’lim tizimida “O‘qish” fani mavjud emas va o‘qish kompetensiyasi boshqa nutqiy kompetensiyalar singari ona tili darslarida o‘qitiladi. Xullas, ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini birlashtirish jahon pedagogikasida o‘zini oqlagan amaliyot hisoblanadi. Bu ikki fanning birlashtirilishi o‘quvchilarda nutqiy samaradorlik bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalarning shakllanish va rivojlanish jarayoni nisbatan oson kechadi. To‘g‘ri, barcha til ko‘nikmalarini o‘zida jamlagan darsliklarni yaratish an’anaviy darsliklarga nisbatan mushkulroq, ammo samaraliroq. Ona tilini o‘qish maqsadi turli nutqiy vaziyatlarda muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, yozish, gapirishni hamda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Boshlang‘ich ta’limda “Ona tili va o‘qish savodxonli”ni yagona o‘quv fani sifatida o‘qitishning shu bilan muhimki, o‘quvchi nutqiy ko‘nikmalarni bir-biridan ajratilmagan holda o‘rganadi. Nutqiy ko‘nikmalarni mukammal egallagan o‘quvchi har qanday vaziyatda o‘z fikrini bayon qila oladi. Mamlakatimiz va xalqimiz ravnaqi, yurtimizning gullab-yashnashi esa mustaqil fikrlaydigan va shu fikrlarni og‘zaki va yozma shakllarda aniq, ravon ifodalab berish

ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxslarga bog‘liq. Anglashiladiki, mamlakat taraqqiyotida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining mahoratli ustoz tomonidan qiziqarli tarzda tashkil etilishining ahamiyati kattadir. Chunki o‘quvchida o‘z ona tiliga, Vataniga va qadriyatlariga bo‘lgan muhabbat ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida shakllanadi.

Dunyo tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida shunday maqsadlarda yaratilgan lug‘atlar ko‘plab yaratilgan. Masalan, A.A.Lebedeva muharrirligida 2022-yilda yaratilgan lug‘atni shunday ta’limiy vositalar sirasiga kiritish mumkin[2]. O‘zbek tilshunosligida ham maxsus lug‘atchilik borasida amaliy ishlar bajarilishi pedagogikaning boshlang‘ich ta’lim sohasini muhim ta’limiy vositalar bilan ta’minlaydi.

Har bir yangi avlod oldida insoniyat tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklarni o‘rganish va rivojlantirish vazifasi turadi, deyishimiz mumkin. Insoniyat boshidan o‘tkazgan va o‘tkazayotgan taraqqiyot bosqichlari shundan dalolat bermoqda. Bunda fikrlarni yetkazish vositasi bo‘lgan yozuv va tilning ahamiyati katta. “Nutqni qog‘ozda (yoki boshqa narsada) aks ettirish uchun xizmat qiladigan harfiy grafik shakllar tizimi, shu tizimga asoslanuvchi aloqa vositasi” [3] yozuv ekan, unga avvalgi avlodlar tomonidan to‘plangan bilimlarni keyingi avlodga yetkazish vositasi sifatida ham qarash o‘rinli bo‘ladi. Shu tufayli har bir avlod o‘zidan avvalgi avlod tomonidan to‘plangan bilimlarni boshidan kashf qilib o‘tirmaydi, balki kelib qolgan joyidan davom ettirib, rivojlantirib ketadi. Bularning hammasi muloqot ko‘nikmalarining qay darajada rivojlanganligi bilan bevosita bog‘liq, albatta. Jumladan, ona tili va o‘qish savodxonligi darsalari o‘z oldiga o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalar mukammal shakllanishini maqsad qilib qo‘yishi lozim bo‘ladi. Bu borada joriy ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklari maqsadi haqida bildirilgan quyidagi fikrlarni keltirish o‘rinli bo‘ladi: “Darslik o‘quvchilarni turli hayotiy vaziyatlarda grammatik jihatdan to‘g‘ri va kommunikativ jihatdan erkin so‘zlay oladigan darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan”.[4] Bunda o‘quvchilar lug‘at boyligining oshirib borilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida yangi o‘rganilgan so‘zlar, ya’ni lug‘at bilan ishlashda bir nechta metodik usullarga murojaat qilish mumkin:

1) so‘z ma’nolarini qiyoslash va ularni izohlash. Bu usul, masalan, paronim so‘zlar qiyosida bu usul samarali bo‘ladi. Chunki paronim so‘zlar nafaqat kichik maktab yoshidagi bolalarni, balki katta yoshdagi shaxslarni ham chalg‘itishi mumkin. Zero, “paronimlar – talaffuzi, eshitilishi va morfem tarkibi o‘xshash, leksik ma’nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqin bo‘lgan so‘zlar” dir [5]. Keltirilgan ta’rifdan ma’lum bo‘ladiki, paronimlar nafaqat so‘zlarning shakliy jihatlarini, balki ular ifodalaydigan ma’nolarni ham qiyoslash, tahlil qilishda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, *sher* va *she’r* so‘zlarini qiyoslash orqali kichik maktab yoshidagi bola so‘zlar talaffuzi bir xil bo‘lsa-da, yozuvda bir harf yoki tutuq belgisi bilan farqlanishi, bu leksik ma’noga ta’sir qilishini bilib oladi. Qiyoslash-taqqoslash usulini paronimlardan tashqari, shuningdek, sinonimlar, omonimlar va antonimlar tahsilida ham muvaffaqiyat bilan qo‘llash mumkin. Masalan, tuzuk, durust, yaxshi, zo‘z, a’lo sinonimik qatoridagi har bir so‘z aynan qanday nutqiy vaziyatda qo‘llanishi shu vaziyatlar o‘zaro qiyoslangandagina tushunarliroq bo‘ladi. Chunki grammatik qoidalar alohida emas, balki nutqiy vaziyatlar ichida berilishi o‘quvchilar uchun tushunarliroq bo‘lishi tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topib ulgurgan. Zero, tilni fonetika, leksika, sintaksis kabi sathlarga ajratish til o‘qitishda emas, tilshunoslik fanini o‘qitishda muhim hisoblanadi. Umuman olganda, qiyoslash va taqqoslash tushuncha haqidagi

ma'lumotlarni to'plashda eng muhim asoslardandir;[5]

2) yangi so'zlar imlosi va talaffuzi va lug'aviy ma'nosini lug'atlar vositasida o'rganish. Bunda so'zning imlosi darslik matnida keltirilsa-da, uning talaffuzi sodda transkripsiyalar yordamida lug'atlar orqali tushuntirilishi ta'lim oluvchida ilk tadqiqotchilik faoliyati shakllanishiga ko'maklashadi. Shuningdek, so'zning lug'aviy ma'nosi va u bilan bog'liq xususiyatlar, masalan, uning sinonimlari, antonimlari, paronimlari bilan lug'atlar vositasida o'rgansa, xotirada saqlanishi karrasiga ortishi shubhasiz Bu metodik usul yaxshi natija berishi uchun, ta'kidlanganidek, ta'lim oluvchilar yoshini hisobga olgan holda yaratilgan tegishli lug'atlar timsolidagi ta'limiy lug'atlar yaratilishi talab etiladi. Aslida, joriy darsliklar bilan integratsiyalashgan lug'atlar yaratilishi bu kabi muammolarning yechimi bo'lishi shubhasiz. Negaki, "til o'zlashtirish ketma-keligiga nazar tashlasak (psixolingvistika va neyrolingvistika sohalarining xulosalari), inson birinchi til – ona tilini jamiyatdan, kitoblardan, ertaklardan, multfilm va kinolardan qabul qilish orqali o'zlashtiradi" [4]. Bolaga ona tilini o'rganishga yordam beradigan kitoblar sirasiga maxsus lug'atlarni ham kiritish mumkin;

3) yangi o'rganilgan so'zlarni muayyan guruhlarga ajratish ko'nikmalarini shakllantirish. So'zlarni guruhlarga ajratish har doim soha mutaxassislarini qiziqitirib kelgan masalalardandir [6]. Guruhlarga ajratish so'z tadqiqini birmuncha osonlashtiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun so'zlarning muayyan turkumlarga ajratilishi haqida dastlabki tushunchalar beriladi.

Natijalar va muhokama. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini oshirishda pedagog mahorati, interfaol metodlardan o'z o'rnida foydalana olishi, o'quvchilar yoshiga mos ta'limiy o'yinlarni qo'llay olishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Albatta, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llanadigan metodlar va ta'limiy metodlar va boshqa pedagogik xatti-harakatlar fan maqsadiga yo'naltirilishi lozim. Shundagina, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyati samaradorligi haqida gapirish mumkin. Tahlil qilinayotgan fanning maqsadi o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish ekan, bunda birinchi navbatda ta'lim oluvchilarning lug'at boyligini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Jumladan, boshlang'ich o'quvchilar lug'at boyligini ko'tarish, dars sifat samaradorligini oshirishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish mumkin: "Bir daqiqa", "Qaynoq kartoshka", "Mosini top", "Zanjir", "To'g'risini tanlab yoz", "Fikrlar hujumi", "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Qo'shningni top", "Beshinchisi ortiqcha", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay", "Baliq ovi", "Kichik guruhlarda ishlash", "So'zdan so'z yasash", "Bir nom bilan ayt" kabi. Sanalgan interfaol metodlardan nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda foydalanish til ta'limi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, albatta.

Ta'lim jarayoniga o'quvchi tinglovchi sifatida emas, balki bu jarayonning ishtirokchisi sifatida kiradi. Shu tufayli hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarga qiziqish faqat pedagoglardagina emas, balki o'quvchilarning ota-onalarida ham ortib bormoqda. Chunki yangi metodlarning ba'zilarida ota-onalar ta'lim jarayonining kuzatuvchilari, ekspertlari va hatto, ishtirokchilari maqomida harakat qilishlariga to'g'ri kelmoqda. Masalan, loyihaga asoslangan ta'lim metodlarida o'quvchilar tomonidan tayyorlanadigan ba'zi loyihalarda ota-onalar ishtirokiga zarurat tug'iladi. "Loyihaga asoslangan ta'lim o'quvchilarga chuqur bilim, shuningdek, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodkorlik va

muloqot kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Tabiatshunoslik fani o‘qituvchisi loyiha ishining geografik hududlarning to‘g‘ri belgilanganligini baholasa, ona tili va o‘qish savodxonligi fani o‘qituvchisi loyihaning qanday taqdim qilinganligini baholaydi. Aynan shu mavzu uchun “To‘g‘risini tanlab yoz”, “Mosini top”, “Qo‘shningni top”, “Yumaloqlangan qor”, “Bingo” kabi ta’limiy o‘yinlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, “Bingo” o‘yini o‘quvchilar bilan guruh asosida ishlashga, mavzuning tezkor va puxta o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur o‘yinning afzalligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: “1) o‘quvchilarning jamoalarda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi; 2) mavzu uchun ajratilgan vaqt tejaladi; 3) yangi mavzu o‘yin vositasida o‘zlashtiriladi. Umuman olganda, bu ta’limiy o‘yindan nafaqat yangi mavzu bayonida, balki o‘tilgan mavzuni so‘rash, mustahkamlash va takrorlash darslarida ham foydalanish mumkin.

XULOSA Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarni egallashlari va rivojlantirishlariga yo‘naltiriladi. Shu bilan birga bu darslarda berilgan matnlar yordamida ta’lim oluvchilar hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham o‘zlashtiradilar. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati samaradorligini oshirishda maxsus ta’limiy vositalardan foydalanish, interfaol metodlarni qo‘llash, loyihaga asoslangan ta’lim metodlariga murojaat qilish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.Ртищева Л.И. Развитие рецептивных умений как цель и средство формирования нескольких компетенций // Молодой ученый. 2009, №3(3), – С.191-194; Якубаева К.С. Формирование рецептивных умений // Вестник КазНМУ. 2012. №7. – С.14-18; Идилова И.С. Формирование продуктивных умений устной речи при обучении иностранному языку студентов неязыкового вуза // Вестник МГЛ, 2019. – С.103-107.

2.Лебедева А.А. Школьный толковый словарь русского языка. – Москва: Виктория Плюс, 2022. – 320 с.

3.Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Toshkent: ЎзМЭ, 2002, – Б.38. – 166 б.

4.Mavlonova K. va boshq. Ona tili va o‘qish savodxonligi: 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: RTM, 2022. – B.4. – 160 b.

5.https://uz.wikipedia.org/wiki/Paronimlar [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 22.04.2024.

6.Sharipov F., Mamatova M. So‘zlarning turkumlarga ajratilishi // Science and innovation, 2022, Volume 1, Issue 7. – P.1535-1538.